

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI**

**ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI BOZORINI TARTIBGA SOLISH HAMDA  
ULARNING NOQONUNIY AYLANMASINING OLDINI OLISH CHORA-  
TADBIRLARINI KUCHAYTIRISH TO‘G‘RISIDA**

Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilish sohasida samarali nazorat tizimini joriy etish, ularning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish, biznesni yuritish uchun sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida:

1. Iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish, shuningdek, uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan Iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini litsenziyalash komissiyasi tugatilsin.

2. Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda — Inspeksiya) tashkil etilsin.

Bunda Inspeksiya boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 30 nafar etib belgilanadi hamda ushbu shtat birliklari Qishloq xo‘jaligi vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan saqlanadigan shtat birliklarini qisqartirish hisobiga shakllantiriladi.

3. Quyidagilar Inspeksiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hamda ushbu jarayonlar ustidan nazoratini ta‘minlash bo‘yicha yagona davlat siyosatini yuritishda ishtirok etish;

iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks dasturlarni amalga oshirish;

iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash;

davlat standartlari va qonun hujjatlari talablariga qat‘iy amal qilgan holda iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnik va texnologik normalarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda tashkil qilish;

iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ularning ulgurji savdosi sohasida litsenziyalash va xabardor qilish tartib-taomillariga rioya etilishini tekshirish va monitoring qilish;

iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ularning aylanmasi hajmlarini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish va rivojlantirish;

alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish va aylanmasining oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish, bunga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida vakolatli organlar bilan hamkorlikni amalga oshirish;

alkogol va tamaki mahsulotlari uchun yangi namunadagi aksiz markalarini ishlab chiqishda qatnashish hamda ularning noqonuniy ishlab chiqarilishi va sotilishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan profilaktika va tushuntirish ishlarini olib borish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi PQ-260-son [qaroriga](#) asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligiga uzumchilik va vinochilik sohasida davlat siyosatini yuritish hamda sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklatilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, 2024-yil 1-oktabrdan boshlab:

a) iste‘mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda quyidagi qo‘shimcha litsenziya talablari joriy etiladi:

yillik litsenziya to'lovlarini, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash bo'yicha qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilish;

alkogol mahsulotlari ishlab chiqarishda va ularning savdosida sifat talablariga, shuningdek, aksiz markalarini qo'llash hamda identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash tartiblariga rioya etish;

alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring va nazorat qilish imkonini beruvchi videokuzatuv vositalarini o'rnatish.

Ushbu kichik bandning **uchinchi** va **to'rtinchi xatboshilarida** ko'rsatilgan talablarning buzilishi litsenziya talablari va shartlarini qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadi;

b) yashirin ishlab chiqarish, aksiz markasiz, raqamli markirovkasiz yoki sifatsiz alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish holatlari aniqlanganda ishlab chiqarish uskunalari davlat foydasiga o'tkaziladi;

v) qalbaki aksiz markali, aksiz markasiz, raqamli identifikatsiya vositasi bilan markirovkalanmagan, qalbaki markirovka kodlari bilan markirovkalangan alkogol va tamaki mahsulotlari nazorat qiluvchi organlar tomonidan muomaladan olinadi va ushbu mahsulotlar bilan savdo qilish huquqini beruvchi litsenziya (ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat) belgilangan tartibda bekor qilinadi;

g) iste'mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ulgurji realizatsiyasiga oid shartnomalar soliq organlarida majburiy hisobga qo'yiladi;

d) har yarim yil yakunlari bo'yicha aroq, shuningdek, iste'mol etil spirtidan aroq va likyor-arop mahsulotlarini ishlab chiqarishda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi 60 foizdan kam bo'lganda, belgilangan 60 foizning bajarilmagan qismiga aksiz solig'i summasining 50 foizi miqdorida moliyaviy jarima hisoblanadi.

Bunda har yarim yillik yakunlari bo'yicha mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi 60 foizdan ko'p bo'lganda va aksiz solig'i to'liq to'langan taqdirda, undirilgan moliyaviy jarima summaları korxonaga qaytarib beriladi.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan yarim yillik ishlab chiqarish rejalarini (mavsumiylikni inobatga olgan holda), ishlab chiqarish jarayonlaridagi mahsulotlar yo'qotishlarining eng yuqori miqdorini belgilash hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi 60 foizdan kam bo'lgan hollarda ishlab chiqaruvchiga nisbatan ta'sirchan mexanizm qo'llash tartibini nazarda tutuvchi qaror loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

2025-yil 1-yanvarga qadar ishlab chiqarish quvvatlaridan va ishlab chiqarilgan mahsulotlardan samarali va maqsadli foydalanish hamda iste'mol etil spirti va alkogol mahsulotlari qoldiqlari ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida iste'mol etil spirti va alkogol mahsulotlarini (bundan tabiiy va ko'piklanadigan vinolar, pivo va pivo ichimliklari mustasno) ishlab chiqaruvchi har bir korxonaga Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti xodimlari biriktiriladi;

ishlab chiqaruvchi "Litsenziya" axborot tizimi orqali litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish haqida xabardor qilingan kundan boshlab o'n ish kuni ichida Inspeksiya tomonidan Soliq qo'mitasi bilan birgalikda soliqlar va yig'implarning to'liq to'langanligi hamda iste'mol etil spirti va alkogol mahsulotlarining qoldiqlari xatlovdan o'tkaziladi.

Bunda xatlov natijasi bo'yicha qoldiqda bo'lgan mahsulotlarning belgilangan tartibda sotilishiga ruxsat etiladi hamda ishlab chiqarish jihozlari muhrlanadi.

6. Belgilansinki:

**Oldingi tahrirga qarang.**

*(6-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrda PF-184-sonli Farmoniga asosan chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.11.2024-y., 06/24/184/0954-son)*

b) 2024-yil 1-iyuldan boshlab, O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida iste'mol etil spirti alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun katta lotlar, boshqa ishlab chiqaruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar) uchun esa — kichik lotlar orqali sotiladi. Bunda:

iste'mol etil spirtini lotlar bo'yicha savdoga qo'yish hajmini belgilash, ularga o'zgartirishlar kiritish hamda bir savdo kunida bitta xaridor tomonidan xarid qilish hajmiga cheklovlarni belgilash Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Raqobat qo'mitasi) tomonidan amalga oshiriladi;

iste'mol va texnik etil spirti xarid qilishga talabgor ishlab chiqaruvchilar, davlat organlari va tashkilotlari O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining axborot tizimiga xarid qilish jarayonlarida iste'mol va texnik etil spirtidan foydalanish hajmi va maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtiradi;

O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan etil spirti xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar mahsulot miqdori va xarid maqsadi kesimida axborot tizimi orqali onlayn rejimda Inspeksiya va Soliq qo'mitasiga taqdim etib boriladi;

v) 2024-yil 1-sentabrdan boshlab iste'mol va texnik etil spirti xarid qilgan ishlab chiqaruvchilar tomonidan O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining axborot tizimiga xarid qilish jarayonida joylashtirilgan iste'mol va texnik etil spirtidan foydalanish maqsadlaridan boshqa maqsadda foydalanilganligi aniqlanganda, oxirgi 12 oyda birja savdolarida xarid qilingan iste'mol va texnik etil spirti hajmiga hisoblanadigan aksiz solig'i summasining 2,5 baravari miqdorida soliq organlari tomonidan moliyaviy jarima qo'llaniladi.

7. Inspeksiyaga iste'mol va texnik etil spirtini masofaviy onlayn kuzatish (GPS) tizimi o'rnatilmagan, elektron hisobvara-fakturasiz, tovar-transport yuk xatisiz hamda belgilangan talablarga javob bermaydigan transport vositalariga yuklash va tashish holatlari litsenziya talablarini buzish deb baholanib, litsenziyaning amal qilishini 10 kun muddatga to'xtatib turish vakolati berilsin.

Bunda ushbu badda nazarda tutilgan litsenziya talablari bir yil ichida takroran buzilgan taqdirda, bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari miqdorida moliyaviy jarima qo'llaniladi.

8. Raqobat qo'mitasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Soliq qo'mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda birja savdolarida iste'mol etil spirti xarid qiluvchilarni to'liq xatlovdan o'tkazsin hamda faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-martdagi "Yuqori likvidli va monopol tovarlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5031-son [qarori](#) talablariga zid bo'lgan subyektlarning birja savdolarida ishtirok etishi taqiqlansin.

9. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2024-yil 1-sentabrdan boshlab, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tamaki mahsulotlarining tranziti uchun quyidagi talablar joriy etiladi:

tovar ishlab chiqarilgan mamlakat sertifikatini, uni yetkazib berish shartnomasi (bitimi), tovarlar bir nechta qismga ajratilib, tranzit yo'li bilan tashilgan taqdirda, uni olib o'tish jadvalining mavjudligi;

yuk olib o'tuvchi tomonidan tegishli bojxona to'lovlarining summasi O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining depozit hisobvarag'iga o'tkazilganligi. Bunda keyinchalik tovarlar respublika tashqarisiga olib chiqilganligi tasdiqlangandan so'ng to'langan summalar qaytariladi;

tamaki tashuvchi transport vositalarining faqat inspeksion ko'rik majmualari bilan jihozlangan chegara bojxona postlari orqali o'tkazilishi;

qabul qiluvchi davlatning aksiz markasi bo'lgan tamaki mahsulotlarini respublika hududidan tranzit olib o'tishga ruxsat etilishi, bundan aksiz markasi qo'llanilmaydigan davlatlardan import qilish yoki ularga eksport qilish hamda qonunchilikka muvofiq aksiz markasi talab etilmaydigan holatlar mustasno.

Bojxona qo'mitasi ikki oy muddatda tamaki mahsulotlarining tranziti bo'yicha bojxona to'lovlari summasini bojxona organlarining depozit hisobvarag'iga o'tkazish va uni qaytarish tartibini nazarda tutuvchi qaror loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

10. Inspeksiya 2024-yil 1-sentabrga qadar yangi litsenziya talablari asosida alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun ilgari berilgan litsenziya bo'yicha litsenziya shartnomalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

11. Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

2024-yil 1-iyulga qadar alkogol mahsulotlari uchun eng kam sotish narxlarini qayta ko'rib chiqsin;

2024-yil 1-sentabrdan boshlab alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi uchun eng kam sotish narxlarini joriy qilsin.

12. Soliq qo'mitasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va "Davlat belgisi" DUK bilan birgalikda 2024-yil 1-avgustga qadar markirovka tizimini aksiz markalari tizimi bilan birlashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga aniq takliflarni kiritilsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga **ilovaga** muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

14. Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

15. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J.A. Qo'chqorov hamda Bosh prokuror N.T. Yo'ldoshev belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2024-yil 3-iyun,  
PF-84-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PF-84-son **Farmoniga**  
**ILOVA**

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son Farmoni bilan tasdiqlangan Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida o'tkaziladigan tekshiruvlar **ro'yxatining** 1 va 26-pozitsiyalari chiqarib tashlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi "Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish hamda uzumchilik va vinochilikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5656-son Farmonining **3-bandida**:

**oltinchi xatboshidagi** "Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi" so'zlari "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi" so'zlari bilan almashtirilsin;

**sakkizinchi xatboshi** chiqarib tashlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-iyuldagi "Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini tartibga solish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6033-son **Farmonida**:

a) **1-bandda**:

**ikkinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**uchinchi xatboshi** ikkinchi xatboshi deb hisoblansin;

b) 2, 3 va 9-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-90-son Farmoni 5-bandi "**b**" kichik bandida:

**ikkinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**uchinchi** va **to'rtinchi xatboshilar** tegishincha ikkinchi va uchinchi xatboshilar deb hisoblansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-noyabrda "Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3377-son qarorining 2-bandi **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"bojxona haqidagi qonunchilik hujjatlari buzilganligi belgilari aniqlangan taqdirda, meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga yuk-bojxona deklaratsiyasi ko'rik hujjati tuzilganidan keyin hamda uzum, vino va konyak mahsulotlari eksportiga yuk-bojxona deklaratsiyasi tovarlarni eksportga rasmiylashtirish ruxsat etilganidan so'ng 3 soatdan ko'p bo'lmagan muddatda rasmiylashtiriladi".

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4787-son **qarorida**:

a) 1, 2 va 4-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

b) 5-bandda:

**ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"texnik navli uzumzorlar va vinochilik sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan kompleks maqsadli dasturlarni amalga oshirish, shu jumladan uzum ko'chatlarini xarid qilish, uzumning seleksiya navlarini yaratish va ularni ekishni tashkillashtirish bilan bog'liq vazifalarning samarali bajarilishi";

**o'ninchi xatboshidan** "Agentlik va" so'zlari chiqarib tashlansin;

**o'n beshinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

v) 7 va 13-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

g) 1-ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5200-son **qarorida**:

a) 5-bandda:

**uchinchi xatboshidan** "Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik)," so'zlari chiqarib tashlansin;

**to'rtinchi xatboshidan** "Agentlik har bir loyiha ofisiga Agentlikning" so'zlari chiqarib tashlansin;

b) 8-bandning **ikkinchi xatboshisidan** "Agentlik," so'zi chiqarib tashlansin;

v) 21-bandning **birinchi xatboshisidagi** "Davlat soliq qo'mitasi" so'zlari "Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) 22-band chiqarib tashlansin;

d) 5-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**"Alkogol va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash va ularning aylanmasiga qarshi kurashish"**

#### KENGASHI TARKIBI

1. Lavozimi — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari — Iqtisodiy bo'yicha jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig'i, *Kengash raisi*
2. Sh.D. — Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi raisi  
Kudbiyev
3. Sh.N. — ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari  
Rahmonov

4. A.Y. — iqtisodiyot va moliya vazirining o‘rinbosari  
Xaydarov
5. A.R. — O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori  
Jumanazarov
6. I.M. — Bojxona qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari  
Muxtorov
7. Lavozimi — Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi  
bo‘yicha raisi
8. Lavozimi — Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi boshlig‘i, *Kengash*  
bo‘yicha *kotibi*

Izoh: Kengash a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi “Aholini sifatli iste’mol tovarlari bilan ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-110-son qarori 6-bandining **birinchi xatboshisidagi** “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari “Soliq qo‘mitasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi “2023 — 2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-260-son **qarorida**:

a) **6-bandda**:

“b” kichik bandning **ikkinchi xatboshisidan** “hamda Vиноchilikni rivojlantirish jamg‘armasiga kelib tushgan” so‘zlari chiqarib tashlansin;

“v” **kichik banddan** “hamda uzum, mevalar va rezavorlardan alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish” so‘zlari chiqarib tashlansin;

b) **12, 13 va 15-bandlar** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

v) **16-bandda**:

**birinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**ikkinchi — beshinchi xatboshilar** tegishincha birinchi — to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

g) **18-band** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

d) **6-ilova** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-son qarorining **5-bandi** quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Belgilab qo‘yilsinki, ko‘chmas mulk qiymatini baholovchi tashkilotni jalb qilgan holda mustaqil baholashni o‘tkazgan va baholash hisobotini soliq organlariga taqdim etgan soliq to‘lovchilarning tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari 2024-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bazasi sifatida e’tirof etiladi”.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.06.2024-y., 06/24/84/0400-son; 23.11.2024-y., 06/24/184/0954-son)*